

# “KONSTITUTSIYA MENING NIGOHIMDA” MAVZUSIDA DIKTANT VA INSHOLAR TANLOVI O’TKAZILDI



Qo’shtepa tumanidagi “Obod xonardon – obod ko’cha – obod mahalla” mezonlari joriy etilayotgan Shomirza MFY hududida bo’lib o’tayotgan “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-yilligi” munosabati bilan “Konstitutsiya - xalqchil davlat, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi!” bosh g’oyasi ostidagi madaniy-ma’rifiy tadbirlar davom etmoqda.

Jumladan, mahalla hududidagi 23-umumiy o’rtta ta’lim maktabida 8 – dekabr “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kun” umumxalq bayrami munosabati bilan “Konstitutsiya -baxtimiz qomusi” mavzusida 9-11 sinflar o’rtasida insholar tanlovi o’tkazildi.

Xuddi shuningdek, hududdagi 38-umumiy o’rtta ta’lim maktabida ham sana munosabati bilan “Konstitutsiya mening nigohimda” mavzusida boshlang’ich sinf o’quvchilari o’rtasida diktant va yuqori sinf o’quvchilari o’rtasida insholar tanlovi o’tkazildi. Tanlovda yuqori o’rinni qo’lga kiritgan o’quvchilar maktab ma’muriyati tomonidan rag’batlantrildi.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#),

2023-12-01 16:27:38